



DRAMALARDA METAFORALARNING QO'LLANILISHI

Matsolayeva Surayyo Quvondiq qiz
Urganch Davlat Universiteti Lingvistika
(ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti.
E-mail: matsolayeva1995@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Shekspir asarlari tarjimalarida tarjimonlarning lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlaridagi badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish haqida fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek metaforaga xos xususiyatlar "Hamlet" tragediyasi tarjimasi misolida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Metafora, tragediya, qiyosiy tahlil, drama, poetik matn, dramaturg, lisoniy ma'no*

Аннотация: *В статье выдвигаются мнения об определении уровня отражения переводчиками мастерства использования языковых единиц в переводах произведений Шекспира в художественном тексте, изучении художественного текста в произведениях, переведенных на узбекский язык, и его специфических особенностей. Также выделены характеристики метафоры на примере перевода трагедии «Гамлет».*

Ключевые слова: *Метафора, трагедия, сравнительный анализ, драма, поэтический текст, драматург, языковое значение*

Annotation: *In the article, the opinions about determining the level of reflection of the translators' skill of using linguistic units in the translations of Shakespeare's works, studying the artistic text in the works translated into Uzbek and its specific features are put forward. Also, the characteristics of the metaphor are highlighted in the example of the translation of the tragedy "Hamlet".*

Key words: *Metaphor, tragedy, comparative analysis, drama, poetic text, dramatist, linguistic meaning*



Shekspir asarlari tarjimalarida tarjimonlarning lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlaridagi badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biridir. Shekspir asarlari tarjimalarining qiyosiy tahlili borasida tarjimashunoslikka oid tadqiqotlarda bir qator fikrlar bildirilgan. Shekspirning san'atkorona so'z qo'llash mahorati orqali uning asarlari o'lmas san'at asarlari sifatida yashab kelmoqda.

Ma'lumki, metaforalar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida qamrab oladi. Metaforaga xos ana shunday xususiyatlarni biz Shekspir asarlari tarjimalarida uchratamiz. Metafora poetik matnlarda muallif munosabatini ifodalashdan tashqari nutq obyektini ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi.

Shekspir asarlari tarjimalarida badiiy matn tavsifi, badiiy matnning boshqa matnlardan farqi, badiiy nutq uslubi, badiiy matnning kompozitsion butunligi, butunlikni ta'minlovchi badiiy tasvir vositalari haqida so'z yuritish lozim.

Badiiy tasvir vositasining bir ko'rinishi: kishi, narsa, hodisaga xos belgi hamda xususiyatni ifodalovchi sifatlash ma'lum so'z birikmasi tarkibida o'z mohiyati o'z belgilarini unga ko'chirgan holda kelishidir. Inson umri davomida hayotda bo'layotgan har bir yangilikni nazardan qochirmaydi. Tevarak atrofda yuzaga kelgan hodisalar, o'z sezgi a'zolari orqali idrok qilgan narsalarga xos xususiyatlarni o'rganib boradi. Ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, tahlil qilish natijasida o'z bilimlarini boyitib boradi. Shu tariqa inson tasavvurida obrazga aylangan tushunchalar ko'chma ma'no kasb etib, nozik his-tuyg'ularning yorqin ifodasi bo'lgan poetik matnlarda ham o'z aksini topishi tabiiy holdir.

”Metaforasiz, - deb yozadi N.D.Arutyunova, - “ko'rinmas olam” (insonning ichki hayoti) leksikasi mavjud bo'lmas edi. [1.5] “Hamlet” tragediyasidagi qahramonning quyidagi gaplarida tevarak-atrofdagilarga munosabati metafora vositasida ifodalangan. U suhbatdoshiga so'zlaganda yolg'onchilik illatini tilga olmaydi, balki uni “**Va'dalarda pishgan** havo taomi” deb ataydi. Murojaatning bu shaklida kinoya, istehzo ma'nolari ko'rinib turadi:

“Hamlet: Ishonasizmi, - juda yaxshi. Xuddi buqalamunday. **Va'dalarda pishgan** havo taomidan yeb yuribman. Semirishga qo'yilgan axta xo'rozlarni ham shunchalik boqmaslar.” [2. 144]



Istehzo, achchiq-achchiq gapirib, fikrini suhbatdoshiga yetkazish uchun asar qahramoni tilidan metaforalar keltiriladi. Bu esa “Hamlet” tragediyasining gʻoyasini tomoshabin yoki kitobxon qalbiga toʻliq yetib borishini taʼminlaydi. “Ofeliya: **Tilingiz zahar** shahzoda, juda zahar! - Qoʻying endi, pyesani koʻray”. [7. 125]

Tragediya qahramoni uchun muhabbat, mahbuba oʻzaro yaqin tushunchalardir. Ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi. Quyidagi misolda shu holat kuzatiladi:

“Sahnadagi malika: - Siz **tatigan** edingiz-ku **muhabbatimdan**,

Tashvishimday muhabbatim oshar haddidan.

His zoʻr boʻlsa juzʻiy narsa xatar koʻrinar,

Koʻp sevilsa, bitta zarra toqqa barobar”. [7. 126]

Tragediya qahramonning oʻz sevgilisiga murojaatidan ham anglashiladiki, metaforada voqelikdagi jonli va jonsiz predmetlar, narsa yoki tushunchalar oʻrtasida oʻxshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga xos belgi-xususiyatlarni va harakatlarni boshqa bir narsaga koʻchiradi va bu oʻz navbatida nom koʻchish hodisasini yuzaga keltiradi. Yuqorida tahlilga tortilgan misolda ishtirok etgan “tatimoq” soʻzidan anglashiladigan maʼno lingvopoetik vosita sifatida metaforik maʼno kasb etgan.

Metaforalar Shekspir asarlari tarjimalarida koʻp uchraydi. Tarjimonlar tomonidan metafora sifatida tanlangan holatlar real voqelikni badiiy boʻyoqlarda aks ettiradi, kitobxonga badiiy-estetik taʼsir koʻrsatadi. Adabiyotshunoslika doir manbalarda metaforalar metaforik sifatlash, metoforik epitet ham deyiladi. Tilshunos B.Umurqulovning koʻrsatishicha: “Til metaforasi badiiy metaforadan oʻxshashlikning formasiga koʻra farqlanadi; Til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq oʻxshashlikka asoslangan koʻchimdir. Masalan: bosh soʻzining asosiy leksik maʼnosi “bosh qism” boʻlib, togʻning boshi, yoʻlning boshi, ish boshi, joʻraboshi kabi koʻchma maʼnolarga yega. Badiiy metaforada predmetlar orasidagi oʻxshashlik asosida badiiy boʻyoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada oʻxshashlik yashiringan holda boʻladi”. [5. 109]

Metaforalar Shekspir asarlari tarjimalarida turli koʻrinishda namoyon boʻladiki, bu ijodkorning va albatta tarjimonlarning tafakkuri doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligidan dalolat beradi.



Xalqimiz azaldan qarg'a madadkor, sherni kuch-qudrat, lochin, burgut, qarchig'ayni yuksaklik, musichani beozorlik, kaptarni beg'uborlik timsoli sifatida ulug'lab keladi. Adabiyotshunos M.Qo'chqorovanning yozishicha, qarg'a nafaqat turkiy xalqlar mifologiyasida, umuman Yevroosiyo xalqlari mifologiyasida ham azaldan mavjud bo'lgan uzoq umr ko'rishi bilan "Aql timsoli" "Insonga homiy madadkor" obraz sifatida aks etishini bilamiz. [11. 149] Tragediyada dramaturg odamlar hayotida bo'layotgan xiyonatga nisbatan chuqur tahliliy, ammo oddiy insonning ruhiy iztiroblari haqida o'ta ta'sirchan hikoya qiladi. Qarg'aning qag'illashi dushmanning yuragiga kuchli vahm solishi uchun aynan mazkur qush o'brazi kiritilgan. Dramaturgning "qarg'a" so'zini metafora sifatida qo'llashida bu holat sezilib turadi:

Qarg'a metaforasida bu qushning madadkorligi nazarda tutilgan:

"Hamlet: Ha, boshlayver qotil. Bo'lsang-chi, hay betamiz! Ahmoqona qiliqlaringni yig'ishtirib, boshlayver. Bo'! **"Qasosga chaqiradi qarg'a qag'illab"**. [7. 130]

Shekspir asarlari tarjimalarida qo'llanilgan metaforalar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, dramaturgning sevimli yorga nisbatan qahramonlar tilidan majnun, muzday toza, qorday pokiza metaforalarini qo'llashi matn mazmunini yanada kuchaytiradi. Bilamizki, metafora bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish. Metafora so'zning yangi ma'nolari hosil bo'lishida qatnashadigan omillardan biridir. Shekspir asarlari tarjimalarida qo'llanilgan metaforalar badiiy pardozi bo'lib qolmay dramaturgning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Dramaturg asarlari tarjimalarida tarjimonlarimiz tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish bilan birga yangi metaforalar ham yaratadi. Bunday individual metaforalar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi:

"Ofeliya: **Majnunlik ajinlari** qoplamish. Yo Rab!

Qayga ketdi saodat? Oh sho'r nasibam!" [7. 113]

Shekspir asarlari tarjimalarida ko'zga tashlangan metaforali tarzda ifodalangan fikrlar ham e'tiborga molik:

"Hamlet: Sen agar erga chiqsang, seping lan'atlar bo'lur. Agar sen **muzday toza va qorday pokiza** bo'lsang ham tuhmatlardan qutulolmaysan". [7. 112]



Ma'lumki, matnda Shekspir asarlari tarjimalarida nazarda tutilgan ma'noning voqelikdagi ma'lum bir o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridandir. Metaforani hosil qilishda obrazlilik hosil qilishdan tashqari matnda bo'yoqdorlik va ta'sirchanlikni yuzaga keltirish ko'zda tutiladi.

Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqovning yozishicha, metafora hamma vaqt o'xshashlik asosida yuzaga kelsa ham, biroq u o'xshatishdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: O'xshatishda o'xshatiluvchi ham, o'xshatilmish ham ma'lum grammatik vositalar bilan birgalikda o'z ma'nolari bilan qatnashadilar. Metaforada o'xshatiluvchi narsa o'rnida o'xshatilmishning o'zi ko'chma ma'noda keladi. Poetik matnning ifodali va ta'sirchan bo'lishi, lingvopoetik vositalarga, emotsional-ekspressiv so'z va iboralarga boy bo'lishi ijodkorning lisoniy zahirasiga, ona tilimiz qonuniyatlaridan qay darajada xabardor ekanligiga bog'liq. Shunga ko'ra badiiy matnlarda turli so'z turkumlariga oid metaforalar uchraydi. Xullas, Shekspir asarlari tarjimalarida qo'llanilgan metaforalar dramatik asarlarning mavzu mohiyatini ochib berishda, dramaturg tomonidan tasvirga olingan nutq obyektini ta'riflash va kitobxon tasavvurida muallif istaganday gavdalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.





ADABIYOTLAR:

1. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс.//Теория метафоры. -Москва, 1990. С.51.
2. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. -Тошкент.: 1990. Б.109.
3. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Тошкент, Ўқитувчи. 1979. -179 бет.
4. Вильям Шекспир. Отелло. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1991.
5. Вильям Шекспир. Гамлет, принц дацкий (пер.Б.Пастернак). – Москва, Изд.: ПСС в 8 томах, 1989. С. 8.
6. Вильям Шекспир. Гамлет. Рус тилидан Мақсуд Шайхзода таржимаси. – Тошкент, Бақтрия Пресс нашриёти. 2013.
7. Вильям Шекспир. Сайланма. Биринчи жилд. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, Фан. 2007.
8. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Тошкент, Фан. 1978.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006.
10. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўқитувчи. 1985.
11. Shoyim Bo`tayev. Yulduzlarga eltar yo`l.//Beqiyos neomifologizm. So`ngso`z. -Toshkent, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. 149-bet